



2021- yilning yanvar-dekabr oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyatida jami **4272,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **132,3 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Jori yilning yanvar-dekabr oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **546,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **151,2 %** ga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **1,5 %** punktga koʻpaydi va **12,8 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



OʻSISH SURʼATI **151,2 %**

● 2020- yil
yanvar-dekabr


● 2021- yil
yanvar-dekabr

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **61,3 %** yoki 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **208,7 %**), Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,5 %** yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **269,0 %**) va Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **12,6 %**, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **56,0 %**) ga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **47,5 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **5,3 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **120,2 %** ni tashkil etgan holda **2030,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **39,7 %** ni tashkil etdi yoki **1695,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish **144,0 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **206,3** mlrd. so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4065,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,8 %** va **95,2 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

ulushi, % da





**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|------------------------|--|---------------|----------------|---------------|----------------|
| | | mlrd. so'm | ulushi % da | mlrd. so'm | ulushi % da |
| Xorazm viloyati | 4272,1 | 206,3 | 4,8 | 4065,8 | 95,2 |
| Urganch sh. | 1038,1 | 72,3 | 7,0 | 965,8 | 93,0 |
| Xiva sh. | 229,2 | 14,5 | 6,3 | 214,7 | 93,7 |
| tumanlar: | | | | | |
| Bog'ot | 265,6 | 12,3 | 4,6 | 253,3 | 95,4 |
| Gurlan | 248,9 | 0,1 | 0 | 248,8 | 100,0 |
| Qo'shko'pir | 274,5 | 12,2 | 4,4 | 262,3 | 95,6 |
| Urganch | 396,7 | 20,6 | 5,2 | 376,1 | 94,8 |
| Hazorasp | 238,4 | 14,6 | 6,1 | 223,8 | 93,9 |
| Tuproqqal'a | 137,1 | 12,8 | 9,3 | 124,3 | 90,7 |
| Xonqa | 339,9 | 9,6 | 2,8 | 330,3 | 97,2 |
| Xiva | 426,0 | 0 | 0 | 426,0 | 100,0 |
| Shovot | 247,0 | 15,6 | 6,3 | 231,4 | 93,7 |
| Yangiariq | 202,2 | 10,6 | 5,2 | 191,6 | 94,8 |
| Yangibozor | 228,5 | 11,1 | 4,9 | 217,4 | 95,1 |

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-dekabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 82,4 % yoki **3520,9** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

82,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **508,6** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 14,4 % ni tashkil etdi.

14,4 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1393,6** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 39,6 % ni tashkil etdi.

39,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1618,7** mlrd. soʻmni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 46,0 % ni tashkil etdi.

46,0 %




**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm) | O'sish sur'ati, % da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm) |
|------------------------|--|-----------------------------|---|
| Xorazm viloyati | 4272,1 | 125,3 | 3520,9 |
| Urganch sh. | 1038,1 | 139,0 | 927,4 |
| Xiva sh. | 229,2 | 126,0 | 182,0 |
| tumanlar: | | | |
| Bog'ot | 265,6 | 145,1 | 177,9 |
| Gurlan | 248,9 | 122,7 | 209,8 |
| Qo'shko'pir | 274,5 | 134,7 | 184,5 |
| Urganch | 396,7 | 123,5 | 305,4 |
| Hazorasp | 238,4 | 140,3 | 192,1 |
| Tuproqqal'a | 137,1 | 127,9 | 109,0 |
| Xonqa | 339,9 | 101,0 | 287,1 |
| Xiva | 426,0 | 133,3 | 361,3 |
| Shovot | 247,0 | 115,3 | 226,4 |
| Yangiariq | 202,2 | 102,0 | 164,5 |
| Yangibozor | 228,5 | 101,9 | 193,5 |

**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari**

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-dekabr oylarida**

mld.s'om

| | Qurilish ishlari hajmi | shu jumladan: | | |
|------------------------|---------------------------|------------------------------------|--------------------------------------|---|
| | | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari |
| Xorazm viloyati | 4272,1 | 3199,2 | 713,4 | 359,5 |
| Urganch sh. | 1038,1 | 698,3 | 277,6 | 62,2 |
| Xiva sh. | 229,2 | 151,8 | 58,8 | 18,6 |
| tumanlar: | | | | |
| Bog'ot | 265,6 | 209,3 | 41,5 | 14,8 |
| Gurlan | 248,9 | 215,5 | 8,6 | 24,8 |
| Qo'shko'pir | 274,5 | 207,4 | 35,3 | 31,8 |
| Urganch | 396,7 | 269,5 | 83,4 | 43,8 |
| Hazorasp | 238,4 | 221,4 | 14,9 | 2,1 |
| Tuproqqal'a | 137,1 | 78,5 | 48,8 | 9,8 |
| Xonqa | 339,9 | 228,8 | 26,7 | 84,4 |
| Xiva | 426,0 | 351,8 | 62,8 | 11,4 |
| Shovot | 247,0 | 201,2 | 17,5 | 28,3 |
| Yangiariq | 202,2 | 187,7 | 14,0 | 0,5 |
| Yangibozor | 228,5 | 178,0 | 23,5 | 27,0 |

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm

Urganch sh.
1038,1

Xiva
426,0

Urganch
396,7

Xiva sh.
229,2



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Urganch shahri (1038,1 mlrd. so'm), Xiva (426,0 mlrd. so'm), Urganch (396,7 mlrd. so'm) tumani hamda Xiva shahriga (229,2 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (62)224-65-22